

A colorful illustration featuring two children, a girl with red hair in a red dress and a boy with blonde hair in an orange vest, standing amidst a variety of school supplies. The supplies include large pencils, a ruler, a protractor, and several butterflies. The background is a green field with white daisies. A large white diamond shape is overlaid on the center of the image, containing text.

Toshkent shahar Yashnobod tumani
244-sonli maktabning mehnat
fani o`qituvchisi Nasrullayeva Fatima
Azatovnaning “Yog`och va boshqa
materiallardan xalq hunarmandchiligi ish
usullari asosida buyumlar tayyorlash”
mavzusida tayyorlagan bir soatlik
dars ishlanmasi

Sana: 20.04.2015 yil

Fan: Mehnat ta'lim.

Sinf: 6-“ B”

Mavzu: Yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash.

(III-chorak 57-58 dars)

Vaqt: 80 daqiqa.

Maqsadi:

1) Ta'limiy:

- o'quvchilarga yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash. Ishlab chiqarish omillari: tabiiy omil, mehnat omili, kapital omili va tadbirkorlik omillari haqida ma'lumotlarni berish

2) Tarbiyaviy :

- O'quvchilarda daraxtlarga va tabiatga bo'lgan mehr-oqibatni yanada kuchaytirish, darahtlarni asrab – avaylashga undash. Mehnatsevarlik va ishbilarmonlik ruhida tarbiyalash. Ishlab chiqarish omillarining atrof muhit va tabiatga ta'sirini tushuntirish. Tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish.

3) Rivojlantiruvchi:

- Yog'och va yog'och materyallarni asrashga bo'lgan munosabatni shakllantirish. Yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlashni o'rgatish.

Jihozlar: Ekran, proektor, rag'bat kartochkalari, slaydlar, rasmlar, mehnat qurollari, asbob va moslamalar, faner, lobzik, shablonlar.

Dars jarayoni:

1. Tashkiliy qism: 3-5 - daqiqa.

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, darsga tayyorgarlik ko'rish, guruhlariga ajratish, kun shiorini e'lon qilish.

O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar:

Bilim: O'quvchilarga yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlashni o'rganishadi.

Ko'nikma: O'quvchilarga yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash ko'nikmasi hosil bo'ladi

Malakalar: O'quvchilarga yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlarni mustaqil tayyorlashadi

Darsning texnologik xaritasi va o`tkazilish ishlanmasi

Mavzu:	Yog`och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash. Ishlab chiqarish omillari: tabiiy omil, mehnat omili, kapital omili va tadbirkorlik omillari
Maqsad, vazifalar	<p>Maqsad: o`quvchilarga yog`och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash. Ishlab chiqarish omillari: tabiiy omil, mehnat omili, kapital omili va tadbirkorlik omillari haqida ma`lumotlarni berish . O`quvchilarda daraxtlarga va tabiatga bo`lgan mehr-oqibatni yanada kuchaytirish, daraxtlarni asrab – avaylashga undash. Mehnatsevarlik va ishbilarmonlik ruhida tarbiyalash. Ishlab chiqarish omillarining atrof muhit va tabiatga ta`sirini tushuntirish. Tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish. Yog`och va yog`och materiallarni asrashga bo`lgan munosabatni shakllantirish. Yog`och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlashni o`rgatish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o`quvchilarga yog`ochga ishlov berish asboblaridan to`g`ri foydalanishni o`rgatish; - yog`och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash, asboblardan foydalanish va bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirish; - yog`och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlashning ish ketma-ketligi va texnologik chizmasining tuzilishini o`rgatish; - amaliy ish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni o`rgatish.
O`quv jarayonining mazmuni	O`quvchilar duradgorlikda ishlatiladigan yog`ochga ishlov berish asboblaridan to`g`ri foydalanishni, go`niya rejalash asbobidan foydalanish va uning imkoniyatlariga oid bilim, ko`nikmalarni, ish ketma-ketligi va texnologik chizmasining tuzilishini, amaliy ish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni o`rgatish.

O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Usul: suhbat o`tkazish, “Arra” metodi, “O`zing o`yla, o`zing top, o`zing yasa”, “Intelektual ring”, “Sapyor”, “Ari chaqdi”, “Eng boy o`quvchi” kabi bir qator metodlar . Shakl: amaliy mashg`ulot.</p> <p><b>Vosita:</b> komp`yuter, slaydlar, ko`rgazmali qurollar, namunalar, tarqatma materiallar.</p> <p><b>Nazorat:</b> “Arra” metodi, “O`zing o`yla, o`zing top, o`zing yasa” metodi. Baholash: reyting tizimi asosida.
Kutilayotgan natijalar	O`qituvchi:</b> mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishiga erishadi. O`quvchilarning mashg`ulot davomidagi faolligini oshira oladi. Ularda darsga, kasb-hunarga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Amaliy mashg`ulotlar jarayonida barcha o`quvchilarni baholashga erishadi. O`quvchi:</b> mavzu bo`yicha yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo`lib ishlashni o`rganadi. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalari rivojlanadi. O`z-o`zini nazorat qilishni va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni o`rganadi. Qisqa vaqt ichida ko`p ma`lumotga ega bo`ladi va baholanadi.
Uyga vazifa	O`qituvchi:</b> mavzu bo`yicha qo`shimcha yangi ma`lumotlar topish. Mavzuga oid test, tarqatma materiallarini va ko`rgazmali qurollarni tayyorlash. Kelgusi dars jarayoniga tadbiq etish.</p> <p><b>O`quvchi: mavzusi bo`yicha olgan bilim, ko`nikma va malakalarini amaliy mashg`ulot jarayonida qo`llash, yog`och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlashni mustaqil ravishda tayyorlab kelish.
Kelgusi rejalar	O`qituvchi:</b> yangi pedagogik va AKT texnologiyalarini o`zlashtirish, dars jarayoniga tadbiq etish, takomillashtirish. O`z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p><b>O`quvchi: sohaga oid kasb-hunarlar haqida qo`shimcha materiallar bilan tanishib, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. O`zining va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

Mashg`ulotning borishi:

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Ajratilgan vaqt
1-bosqich	Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish, mashg`ulotning borishi haqida tushuncha berish.		10
2-bosqich	O`tigan mavzuni mustahkamlash:</b> o`quvchilarga o`tilgan dars mavzusi bo`yicha suhbat o`tkazish tashkil qiladi. Mavzuga oid savollarni tarqatma material sifatida o`quvchilarga tarqatadi. O`quvchilarga berilgan topshiriqlarni tekshiradi va baholaydi.	Suhbat o`tkazish, sapyor va ari chaqdi metodi O`zing oyla, o`zing top, o`zing yasa,	20
3-bosqich	Yangi mavzu bayoni. Mavzuning maqsadi, asosiy ma`no-mazmuni, qo`llaniladigan ish usullari o`quvchilarga tushuntirib beriladi.	„Intelktual ring“ “Eng boy o`quvchi”  Amaliy mashg`ulotlarning video roligi namoyish etiladi	15
4-bosqich	Amaliy mashg`ulot:</b> o`quvchilarni mavzuga oid bilimlarini mustahkamlash maqsadida sochiqlar uchun taglik yasash topshirigi beriladi.	“O`zing o`yla, o`zing top, o`zing yasa” metodi Texnologik harita asosida buyum tayyorlash Tayyorlangan buyublar boyicha slayd namoyishi	25

5-bosqich	Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash:</b> “Oyda qolib ketmaymiz ” metodi asosida o`quvchilar bilimi mustahkamlash.	“Oyda qolib ketmaymiz ” metodi	10
6-bosqich	Uyga vazifa berish, darsni yakunlash. Mavzusiga yuzasidan qo`shimcha savollar tuzish. Nilufar guli chizmasini to`ldirish	Nilufar guli chizmasi	5
7-bosqich	O`quvchilarni baholash		5

2. O`tilgan mavzuni so`rash. 10-15 - daqiqa. (bilimlarni mustahkamlash o`yini o`ynaladi, tarqatma materiallar asosida o`tilgan mavzular mustahkamlanadi. “O`zing o`yla, o`zing top” mashqi bajariladi).

**Intelektual ring o`yini asosida “Eng boy o`quvchi” metodi o`tkaziladi.** (ingliz tilida o`quvchilarga sanash o`rgatiladi. Ingliz tilidagi bilim salohiyati tekshiriladi).

1. I have 10 dollars.
2. I have 20 dollars.
3. I have 30 dollars.
4. I have 40 dollars va hakozi.

3. Yangi mavzuni bayoni. O`quvchilarga yangi mavzu maqsadi tushutiriladi** (nazariy ma`lumotlarni berish. Nazariy ma`lumotlar slaydlarda ko`rsatiladi.). **(15-20 daqiqa.)

Xalq hunarmandchiligining turlari va ahamiyati:

Respublikamizda amalga oshirilgan istiqlool tufayli yo`qolib borayotgan milliy hunarmandchilikni qayta tiklash, uni o`sib kelayotgan yosh avlodni o`rgatish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1997 yil 31 martda e`lon qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonda milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy sa`natining ahamiyatini oshirish, qo`lda yuksak badiiy buyumlar yasashning asriy an`analarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandchiligini taraqqiy ettirishga davlat tomonidan aniq yordam ko`rsatish belgilab berildi.

O`quvchilarga bilim berishda avvalambor “Hunarmandchilik” so`zining asl ma`nosini izohlab berish lozim. Hunarmandchilik degani har xil mehnat qurollari yordamida xom ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqaradigan kasblarning umumiy nomini anglatadi.

Xalq hunarmandchiligi kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, chilangarlik, sandiqchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, to‘quvchilik, kabi turlardan iborat bo‘lib, ularning sir-asrirlari asrlar davomida otabobolarimiz, buvi va onalarimiz tomonidan o‘rgatilishi natijasida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tib kelmoqda. Aytish mumkinki, o‘g‘il-qizlarimizning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlarida, kelgusida ma’lum bir kasb-hunar egalari bo‘lib jamiyat manfaati uchun xizmat qilishlarida, milliy qadriyatlarimizni anglab etishida xalq hunarmandchiligining o‘rni beqiyosdir. Yoshlarni kelajak hayotga, oilaviy turmushga tayyorlash - maktab yoshidan boshlanadi. Ular oilada mehmondo‘st, oilani tebratadigan, isrofga yo‘l qo‘ymaydigan, pokiza, pazanda bo‘lish bilan birga qo‘li gul chevar bichuvchi, tikuvchi, kashtachi, zardo‘z, o‘g‘il bolalar ham biror hunar egasi bo‘lib, o‘zlari tanlagan kasbi bo‘yicha halol non topish yo‘lini o‘rgansalar ularga hammaning havasi keladi.

Topishmoqlar

Guli to‘rta yarim oy, boshginamdan olar joy. - *Bu nima? Bu – do‘ppi.*

Birlashtirib kiyimni, issiq tutar bizni. - *Bu nima? Bu – tugma.*

Maqollar

Hunar o‘rganish uchun ham hunar kerak.

Hunarni - hunarlidan o‘rgan, bilimni - bilimlidan.

Oltin o‘tda bilinar, odam - mehnatda.

Yuzga kirsang ham hunar o‘rgan.

Yog‘och o‘ymakorlik san’ati tarixi va rivojlanishi. Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek xalqi amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki boshqa yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib ishlanadi. Badiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimgi SHarqda, dunyo mamlakatlarida arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Evropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och o‘ymakorligining rivojlanib o‘ziga xos badiy uslublari kelib chiqqan. O‘rta Osiyoda ham yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib, kishilarning uy ro‘zg‘or buyumlari tayyorlashda juda keng qo‘lanilgan. Bu o‘ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, xar xil to‘sinlar, stol, stul, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Xalq amaliy yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi ahlini lol qoldiradi. Afsuski yog‘ochdan ishlangan ajoyib yog‘och o‘ymakorligida har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o‘tishi bilan ular dosh berolmay deyarli ko‘pchiligi chirib, yo‘q bo‘lib ketgan. 5-6-asrlarga oid yog‘och o‘ymakorligi namunalari Surxandaryo vohasida Yumoloq tepada topilgan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, SHaxrisabz va boshqa shaharlardagi qazilmalarda ham topilmoqda. 7-asrning oxirigacha mahalliy o‘zbek xalqi ichida yog‘och o‘ymakorligi tez sur‘tlar bilan rivojlangan edi. 9-10-asrlarda O‘rta Osiyoda, shuningdek, mamlakatimiz hududida ham madaniyat rivojlanadi. Ayniqsa 11-12-asrlarda xalq amaliy san’ati yanada gurkirab o‘sdi. 12-asrda Chingizxon

boshchiligidagi bosqin tufayli madaniy hayot izdan chiqdi. 14-15-asrlarda yog‘och o‘ymakorligi tez ko‘lamda rivojlandi. 19-20-asrlarda yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san‘atning boshqa turlari rivojlanib, har bir shaharning o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi.

2. Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan yog‘och turlari va o‘ziga xos xususiyatlari. Yog‘och o‘ymakorligida ota bobolarimiz qadimda xar xil yog‘ochlardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. Hamma yog‘ochlar ular olinadigan daraxt turiga qarab 2 guruxga bo‘linadi: a) bargli daraxtlar; b) nina bargli daraxtlar.

Nina bargli daraxtlardan olingan yog‘ochlar qurilishda, durodgorlikda va yog‘och o‘ymakorligida asosiy material hisoblanadi. Chunki uning o‘ziga xos afzaliklari bor. Chunonchi uning tarkibida smolali moddalari bo‘lgani uchun u tez chirib ketmaydi, bargli daraxtlarga qaraganda ko‘p va engil, unga ishlov berish oson, tanasi to‘g‘ri, silliq bo‘lgani uchun undan silliq xoda tayyorlash mumkin. Lekin o‘ymakorlikda shumtol, eman, arg‘uvon, terak, chinor va boshqa daraxt yog‘ochlari ham ishlatiladi. Yog‘och materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga, hidiga qarab aniqlanadi. O‘zbekistonda yog‘och o‘ymakor ustalar o‘z ishlari uchun eng yaxshi yong‘oq, qarag‘ay, chinor, tut, archa, terak, o‘rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a‘lo navlarini ishlatadilar. SHu bilan birga boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, qarag‘ay kabi daraxt yog‘ochlarini ishlatganlar.

Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan materiallar:

1. **Bargli daraxtlar** - tog‘ teragi, arg‘uvon, baqaterek, mirzaterak, oq va qora qayin, shumtol, zarang, chinor, nok, o‘rik, yong‘oq.

2. **Nina bargli daraxtlar** - qarag‘ay, tilog‘och, archa, zirk.

Tog‘ teragi tez chiriydigan bo‘lmagani uchun undan keng foydalaniladi. Ularda asosan o‘yinchoqlar, idishlar, gurgutlar yasaladi.

Oq qarag‘ay - cholg‘u asboblari yasashda, yog‘och o‘ymakorlikda va qurilishda ishlatiladi. **Qarag‘ay** - qurilishda, kemasozlikda, mebel’ ishlab chiqarishda, durodgorlikda, yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladi. **Arg‘uvon** - yog‘och o‘ymakorligida uni 80-90 yilligi ishlatiladi. **Tilog‘och** - yog‘och o‘ymakorligida, qurilishda ishlatiladi. **Qora qayindan** chizmachilik asboblari, mebellar yasaladi. **SHumtol** vagonsozlikda, samalyotsozlikda, kemasozlikda qo‘llaniladi. **Zarang** qimmatbaho mebellar ishlab chiqarishda, mashinasozlikda ishlatiladi. **Chinordan** qimmatbaho mebellar tayyorlanadi. **Archa** yog‘och o‘ymakorligida qadimdan qo‘llanib kelingan. **Yong‘oq** qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladi. U ajoyib ko‘rinishga ega. **Zirkdan** arzon mebellar tayyorlanadi. CHunki unga tez qurt tushadi.

Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan asboblari. Yog‘och o‘ymakorligida turli asboblari ishlatilib, ular o‘ziga xos ishlarni bajaradi. Yog‘och o‘ymakorligida asboblari ikki turga bo‘linadi, ya’ni naqshni o‘yish uchun “o‘yma qalamlar” va ikkinchisi “naqsh qamlari”. Shakli va bajaradigan ishiga qarab iskanalarning bir qancha xillari bo‘ladi. Masalan iskana, morpech, baliq sirti, zamin, kovza, chekma va boshqalar.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki o'zlari yasaganlar. Xozirda yog'och o'ymakorlik asboblari metalsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Iskanalar bir tomonga qarab charxlanib o'ziga xos o'tkirlik burchagida charxlanadi. Iskanalarning dastalari pishiq yog'ochlar - qayin, qora qayin, qayrog'och, zarang, yong'oq va boshqa darxtlarda tayyorlanadi.

Iskana –durodgorlik asbobi bo'lib, undan o'yish-teshish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Iskanalarni o'yuvchi hamda yo'nuvchi xillari bor. **Kovza iskana** -to'g'ri va egri tig'li bo'ladi. **To'g'ri iskana** –to'g'ri sterjen keskichli bo'lib, tig'ining eniga qarab kichkina, o'rtacha va katta iskanalarga bo'linadi. Tig'ining eni 1.5 mmdan 10 mmgacha bo'ladi. **Nova iskana** tuzilishi bo'yicha tig'ining uchi nov shaklida bo'ladi. **Zamin iskana** naqshning zaminini o'yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mmdan 8mm gacha bo'ladi. **Baliq sirti iskana** tig'i botiq, kamalaksimon ko'tarilgan, baliq qovirg'asi shaklida bo'lgan asbobdir.

Morpech iskana buyumga o'yilgan naqshlarning chetlaridagi xoshiya, zanjira, yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda qo'laniladi. **Chekma iskana** o'yilgan naqshning zaminini bir tekis chiqishi uchun ishlatiladigan asbob. **Kurakcha iskana** kesadigan tig'ining uchi bir tomonga qiya holatda bo'lib, u kurakcha ko'rinishda bo'ladi. Hatkash chiziqlarni chizishda ishlatiladigan maxsus asbob. Tanasiga bitta yoki ikkita prizmatik shizg'ich o'rnatilgan bo'ladi. Yog'och o'ymakorligida yog'och dan tashqari qog'oz elim, knopka, chigit yog'i, qalamlar, bundan tashqari yog'och o'ymakorligida naqsh kampozitsiyalarni chizish, o'lchash uchun bir qancha o'lchov asboblari ishlatiladi. Masalan chig'ichlar, pargar, o'chirg'ich uchburchak, reysshina, transportyor, jilvir qog'oz, yelim.

Amaliy mashg'ulot bajarish:

Amaliy mashg'ulot davomida o'quvchilar sochiqcha uchun taglik tayyorlashadi. Sochiqcha uchun taglikning tayyorlash texnologik xaritasi o'quvchilarga tarqatiladi.





4. Yangi mavzuni mustahkamlash: 5-daqiqa (yangi mavzu bayoni bo'yicha "Sapyor" o'yini o'ynaladi hamda "Nilufar guli" chizmasi asosida olingan bilim va ko'nikmalar tekshirib ko'riladi va bilimlar mustahkamlanadi)

5.O'quvchilarni baholash: 3 daqiqa(barcha o'quvchilar darsdagi harakatiga qarab baholanadi)

6. Uyga vazifani e'lon qilish: o'tilgan mavzular yuzasidan test savollar ituzib kelish. Nilufar guli chizmasi asosida ma'lumotlarni yanada chuqurroq o'rganish.

“Nilufar” guli chizmasi

	B	





	Z	

	C	

	D	

B	Z	C
D	Savol	F

	F	



“Nilufar” guli chizmasi

	Arra	

	Bolg`a	

	Bolta	

	Iskana	

Arra	Bolg`a	Bolta
Iskana	Asbob va moslamalar	Lobzik
Go`niya	Egov	Qum qog`oz


	Lobzik	

	Go`niya	

	Egov	

	Qum qog`oz	


“Sochiqcha uchun taglik” texnologik kartasi.



№	Ish ketma-ketligi	Eskiz	Asbob va moslamalar
1	Sochiqcha uchun taglikka mos xom ashyo tanlash. Xom - ashyoning nuqsonlarini tekshirish.		Faner
2	Xom-ashyodan sochiqcha uchun taglikning o`lchamlarini chizib olish hamda shablonlar tayyorlash.		Chizg`ich, qalam
3	Zagatovkani chiziqlar bo`yicha lobzik yordamida qirqib olish		Lobzik

4	Zagatovka qismlarini tekislash va silliqdash		Qum qog`oz
5	Zagatovkaning qismlariga tasvirlar chizish		Qalam, sablonlar
6	Chizilgan tasvirlarni bo`yash.		Guash, kistochka
7	Zagatovkalarni bir-biriga biriktirish		Mix, bolg`a, yelim
8	Sochiqcha uchun taglikni pardozlash va laklash.		Lak, qum qog`oz

“Sochiqcha uchun taglik” texnologik kartasi.



№	Ish ketma-ketligi	Eskiz	Asbob va moslamalar
1			
2			
3			

4			
5			
6			
7			
8			

«Oyda qolib ketmaymiz» mashqi

t/r	Shaxsiy javob	Farqi	Jamoa fikri	Farqi	To`g`ri javob
1	Arra				
2	Randa				
3	Egov				
4	Qum qog`oz				
5	Iskana				
6	Suv				
7	Pichoq				
8	Verstag				
9	Stanoq				
10	Bolg`a				
11	Bolta				
12	Arvyorka				

13	Lobzik				
14	Pona				
15	Qumqog`oz				
Jami:					

